

NAJMIDDIN KUBRONING TASAVVUF TA'LIMOTIDAGI O'RNI

Abduragimov Muxammadiy Rustamjanovich*Yangi asr universiteti magistranti*Abduragimovmuhammadiy38@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Najmiddin Kubroning hayoti, ilmiy faoliyati, shogirdlari va tasavvuf ta'limotidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, Kubraviya tariqatining shakllanishi, uning asosiy g'oyalari va tarqalish jarayoni tahlil qilinadi. Allomaning asarlari hamda tasavvufiy qarashlari ilmiy jihatdan bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Najmiddin Kubro, tasavvuf, Kubraviya tariqati, shogirdlar, irfon, zikr, murid, tariqat.*

Abstract: *This article discusses the life, scholarly activity, disciples, and the role of Najmuddin Kubra in Sufism. It also analyzes the formation of the Kubrawiya order, its main ideas, and its spread. The scholar's works and mystical views are presented from an academic perspective.*

Keywords: *Najmuddin Kubra, Sufism, Kubrawiya order, disciples, mysticism, dhikr, murid, tariqa.*

Najmiddin Kubro ilm tahsil qilishda ishtiyoqi baland edi, natijada daho bo'lib yetishdi. Doimo talabalar bilan birga bo'lib, ularga ta'lim berish bilan shug'ullandi. Shogirdlari juda ko'p bo'lib, undan turli ilmlarni oldilar va o'z o'rnida o'zlaridan keyingi shogirdlariga yetkazdilar. Dovudiy u kishi haqlarida shunday deydi: "Juda ham ko'p hadis ahli va boshqa ko'pchilik sayyohlar u kishi haqlarida yozganlar".

"Tasavvufga kirish" darslik kitobida ta'kidlanishicha, mo'g'ullar istilosi arafasida shayxning to'rt yuzdan ortiq muridi bo'lib, ular orasida nomlari tarixda qolgan, o'zlari ham katta shayx darajasiga ko'tarilgan shayx Majdiddin Bag'dodiy, shayx Sa'diddin Hamaviy, shayx Sayfiddin Boxarziy, shayx Aynuz-zamon Jamoliddin Jiliy, shayx Bobo Kamol Jandiy, shayx Najmiddin Roziy Doya, shayx Roziddin Ali Lolo, shayx Jamoliddin Ahmad Jurfoniy va boshqalar bo'lgan. Bundan tashqari, shayx Nuriddin Abdurahmon Isfaroiniy, Abul Makorim Rukniddin Alouddavla, Ahmad ibn Muhammad Biyoboniy ham bevosita bo'lmasa-da, nisba bo'yicha Najmiddin Kubro muridlaridir. Ularning har biri tasavvuf tarixida o'z mavqeiga ega bo'lgan Kubraviya tariqatining davomchilari hisoblanadilar.

Kubraviya tariqati shayxlaridan bo'lgan Majdiddin Bag'dodiy (Farididdin Attorning piri), Sa'diddin Hamaviy, Bobo Kamol Jandiy, Sayfiddin Boxarziy, Najmiddin Roziy va boshqalar mashhur shogirdlar yetishtirgan.

Quyida Najmiddin Kubroning shogirdlari tartib bilan keltiriladi:

Al-Boxarziy — Said bin al-Mutohhar bin Said bin Ali, Sayfiddin al-Boxarziy (vaf. 659 hijriy), Najmiddin Kubroga hamrohlik qilib, undan ilm olgan.

Majduddin Bag‘dodiy — Majididdin Sharaf bin Muayyad bin Abil Fath al-Bag‘dodiy al-Hanafiy Abu Said (556/610 hijriy).

Najmiddin Doya — Abdulloh ibn Muhammad bin Shahavar bin Anushiravon bin Abu an-Najib, al-Asadi, ar-Roziy, Najmuddin, Abu Bakr (573/654 hijriy), Najmiddin Kubrodan hadis eshitgan.

As-Sa‘d al-Humaviy — Muhammad bin Muayyad bin Abdulloh ibn Ali bin Muhammad bin Humaviyya, Shayx Sa‘duddin al-Juvayniy as-Sufiy.

Ahmad ibn Ali ibn Abdurrahmon, Abu al-Abbos an-Nafhiy al-Andalusiy (vaf. 613 hijriy), u hadisni muallifdan eshitgan.

Usmon ibn Muhammad bin Abdulloh ibn Bishora, Abu Muhammad Faxriddin as-Saramadiy ar-Roniy (615 hijriy), Xorazmda “Sharhus sunna” kitobini o‘rgangan.

Umar ibn Abdul Karim al-Qazviniy (615 hijriy), Xorazmda ta‘lim olgan.

Muhammad bin Mahmud al-Jubg‘oniy (615 hijriy), “Sharhus sunna”ni o‘rgangan.

Abdul Aziz al-Mag‘ribiy al-Andalusiy (vaf. 617 hijriy).

Shamx bin Sobit as-Sinbisiy (vaf. 638 hijriy).

Nosir bin Mansur (vaf. 642 hijriy), Xorazmda hadis eshitgan.

Muxtor al-G‘azminiy (vaf. 658 hijriy), Najmiddin Kubrodan ta‘lim olgan.

Alisher Navoiyning yozishicha, Mavlono Jaloliddin Rumiyning otasi Bahouddin Valad ham uning muridi bo‘lgan.

Najmiddin Kubro yuksak obro‘ga ega bo‘lsa ham kamtarona hayot kechirgan. Uning muridlari Eron, O‘rta Osiyo, Arabiston, Kavkaz, Shom, Iroqning turli joylaridan kelib tahsil olganlar.

Ibn Hilola aytadilar: “Bir necha bor u kishining huzurlarida yolg‘iz o‘tirganman. Ko‘plab qiziq voqealar sodir bo‘lganining guvohi bo‘lganman”.

Hoji Xalifa “Sullamul-vusul” asarida Najmiddin Kubroni o‘ta zakiy inson sifatida ta‘riflaydi. U yoshligidan ilmga ustun bo‘lib, “Tommatul Kubro” kunyasi bilan atalgan.

As-Sofadiy esa: “Ko‘p shaharlarni kezdi, hadis o‘rgandi va Xorazmda shayxga aylandi. G‘ariblarning yordamchisi edi”, — deb yozgan.

Najmiddin Kubro yoshligidan ilmga berilgan bo‘lib, Misr, Tabriz, Hamadon kabi shaharlarda tahsil olgan. Keyinchalik Xorazmgga qaytib, o‘z maktabini yaratgan.

U Kubraviya tariqatiga asos solib, qisqa vaqt ichida katta shuhrat qozongan. Uning asosiy asarlari:

“Favoyih al-jamal va favotih al-jalal”

“Al-usul al-ashara”

“Risolat al-xaif”

Kubraviyada ranglar ramzi tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, har bir rang ma‘naviy bosqichni bildiradi.

“Al-usul al-ashara” ta‘limoti

Asarda murid tarbiyalashning 10 bosqichi qayd etilgan: Tavba, Zuhd, Tavakkul, Qanoat, Uzlat, Zikr, Tavajjuh, Sabr, Muroqaba, Rizo.

Har bir bosqich insonning ma'naviy kamolotga erishishida muhim o'rin tutadi. Najmiddin Kubro shahid bo'lganidan so'ng, uning ta'limotini shogirdlari davom ettirdilar. Kubraviya tariqati keyinchalik turli yo'nalishlarga ajralib, keng hududlarga tarqaldi.

U insonlarni ezgulikka, ilmga, saxovat va mardlikka da'vat etgan. Uning ta'limoti bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Tasavvufga kirish". – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2006. – 240 b.
2. Navoiy, Alisher. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2001. – 320 b.
3. Jomiy, Abdurahmon. Nafahot ul-uns. – Tehron: Intishoroti Amir Kabir, 1998. – 650 b.
4. Hoji Xalifa. Sullamul-vusul. – Istanbul: Dar al-Kutub, 1893. – 480 b.
5. Hidoyat, Rizoqulixon. Riyoz ul-orifin. – Tehron: Kitobfurushi-yi Islomiya, 1963. – 720 b.
6. Nasafiy, Aziziddin. Zubdat ul-haqoyiq. – Tehron: Intishoroti Donishgoh, 1973. – 210 b.
7. G'ozurgohiy, Kamoliddin Husayn. Majolis ul-ushshoq. – Tehron: Intishoroti Bunyodi Farhangi, 1971. – 380 b.